BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTABOYEVA YULDUZXON ABDUSATTOROVNA

FARG‘ONA VODIYSI EROZIYALANGAN TUPROQLARI SIANOBAKTERIYALARI VA MIKROSUVO‘TLARINING TAKSONOMIK XILMA-XILLIGI VA BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 581.92:556.322.2(575.121)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавления автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

To‘xtaboyeva Yulduzxon Abdusattorovna
Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarida sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning taksonomik xilma-xilligi va biotexnologik potensiali ……..3

Тухтабоева Юлдузхон Абдусатторовна
Таксономическое разнообразие и биотехнологический потенциал цианобактерий и микроводорослей эродированных почв Ферганской долины)……..27

Tukhtaboeva Yulduzkhon Abdusattorovna
Taxonomic diversity and biotechnological potential of cyanobacteria and microalgae of eroded soils of the Fergana Valley)…….……53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……...……57

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘XTABOYEVA YULDUZXON ABDUSATTOROVNA

FARG‘ONA VODIYSI EROZIYALANGAN TUPROQLARI SIANOBAKTERIYALARI VA MIKROSUVO‘TLARINING TAKSONOMIK XILMA-XILLIGI VA BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/B239 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Tojibayev Komil Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Adilov Bexzod Abdullaevich** biologiya fanlari doktori
	Bo‘riyev Sulaymon biologiya fanlari doktori, professor
	Kulikovskiy Maksim Sergeevich biologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20 avgust kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (74-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 4 avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil №13-raqamli reestr bayonnomasi)

O.K. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, b.f.d., professor

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Biosferaning eng muhim qismi bo‘lgan tuproq hozirgi vaqtda sezilarli darajada degradatsiyaga uchragan. Degradatsiyaning turlari ichida eng keng tarqalgani va zararlisi tuproq eroziyasidir (Кузнецов и др, 1994). Tuproqlarni eroziyadan himoya qilish muammosi qurg‘oqchil iqlimli mintaqalarda joylashgan ko‘plab mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Respublikada tuproqlarni o‘rganish va ularni eroziyadan himoya qilish tobora murakkab vazifaga aylanib bormoqda. O‘zbekiston sharoitida eroziya jarayonlarining rivojlanishi va eroziya manbalarining to‘planishida yon bag‘irlari relyefi katta rol o‘ynaydi. Janub yon bag‘irlarida qor kuchliroq eriydi. Shu sababli, boshqa barcha narsalar teng bo‘lganda, tog‘larning janubiy yon bag‘irlaridagi tuproqlar shimoliy yon bag‘irlaridagi tuproqlarga qaraganda ko‘proq suv eroziyasiga duchor bo‘ladi. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti, tuproqlarning xilma-xilligi va ularning eroziyaga moyilligi, eroziyaning tuproq unumdorligiga ta’siri, eroziyaga qarshi kurash chora-tadbirlari, eroziyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Tuproq unumdorligi, qishloq xo‘jaligida barqaror ishlab chiqarishning asosi va oziq-ovqat xavfsizligi kafolatidir. Qishloq xo‘jaligida organik moddalarning salbiy balansi tufayli tuproq unumdorligini tiklash muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda (Куприченков, Менкина, 2012). Tuproq unumdorligining pasayishiga va qishloq xo‘jaligi yerlarining degradatsiyasiga olib keladigan eng keng tarqalgan omillardan biri eroziyadir. Dunyo ekotizimlari orasida qurg‘oqchil hududlar tuproq algologlari uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki kam rivojlanadigan o‘simliklar sharoitida suvo‘tlar bunday ekotizimlarda asosiy fototroflardir (Isichei, 1990).

O‘zbekiston Respublikasi tabiiy resurslarga boy, jumladan, qishloq xo‘jaligi uchun unumdor tuproqlarga, o‘rmonlarga, suvga, mineral resurslarga, shuningdek, xilma-xil o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega. UNEP qurg‘oqchilik indeksiga ko‘ra, (0,05-0,20 dan 0,65 gacha) mazkur hudud (tog‘ oldi va tog‘li hududlardan tashqari) havo va tuproq qurg‘oqchiligi ta’sirida bo‘lgan qurg‘oqchil hududga kiradi. Shunga mos ravishda degradatsiya va cho‘llanish jarayonlariga moyilligi yuqori hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilga mo‘ljallangan atrof-muhit holati to‘g‘risidagi Milliy hisobotiga ko‘ra, sug‘oriladigan yerlarning katta qismi turli darajada degradatsiyaga uchragan: 2 million gektar deflyatsiya, 619 gektar irrigatsiya eroziyasi va 40 ming gektar jarliklar eroziyasiga uchragan. Shunga ko‘ra, eroziyaning biodiagnostikasi, eroziyaga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Bundan tashqari, eroziyalangan tuproqlarda biotaning taksonomik xilma-xilligini modda va energiya aylanishlarining harakatlantiruvchisi sifatida baholash muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-sonli “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat

qo‘mitasining 2018-yil 26-iyundagi 6-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 47-fevral, 47-sonli “O‘zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 21-sentabrdagi 409-sonli O‘zbekiston Respublikasining boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarida ham “Yerlarni cho‘llanishga qarshi va degradatsiya barqarorligiga erishish Milliy harakatlar dasturi” (НАДПО) ga mos vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida, [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022−2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnikasini rivojlantirishning V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarga sharh[2]. Tuproq siyanobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarini an'anaviy va zamonaviy tadqiqotlari Albrecht von Haller O‘simlikshunoslik instituti (Germaniya), Texas universiteti (AQSh), Biologik tadqiqot markazi (Chexiya), Anhui universiteti (Xitoy), Qishloq xo'jaligi akademiyasi (Rossiya), Boustan universiteti (Rossiya) kabi yetakchi ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlarida olib borilmoqda. (Hindiston), Padua universiteti (Italiya), Taras Shevchenko nomidagi Kiyev Milliy universiteti (Ukraina), Melburn universiteti (Avstraliya), Minas-Jerais federal universiteti (Braziliya), Toyama universiteti (Yaponiya) va Botanika instituti (O‘zbekiston).

Mikro‘suvotlar va siyanobakteriyalarning biotexnologik salohiyatini aniqlash va ulardan istiqbolli maqsadlarda foydalanishni aniqlash uchun butun dunyoda quyidagi amaliy natijalar olingan: *Bracteococcus, Muriella, Klebsormidium, Tetradesmus* kabi mikrosuvo‘tlar shtammlari tarkibida ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalari, omega-6 va omega-3 ning samarali ishlab chiqarish potentsiallari maksimal bo‘lishi ko‘rsatilgan. Linoleik, geksadionik va boshqa kislotalar, shuningdek, bu shtammlardan farmatsevtika, tibbiyot va qishloq xo'jaligida ozuqa va ozuqa qo'shimchalarining tarkibiy qismlari sifatida foydalanish mumkinligi ko'rsatildi (O‘simliklar fiziologiyasi instituti, Rossiya; Almeriya universiteti, Ispaniya).Qishloq xo‘jaligida bioo‘g‘it sifatida mikrosuvo‘tlar yoki siyanobakteriyalardan foydalanish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va tuproq unumdorligini saqlash zamonaviy azot iqtisodiyotini yaxshilashning istiqbolli va foydali yondashuvi hisoblanadi (New Castle universiteti, Avstraliya).

Hozirgi vaqtda dunyoda mikro‘suvo‘tlar va siyanobakteriyalarning degradatsiyalangan tuproqlarning strukturaviy holatini yaxshilash, unumdorligini

[1] O`zbekiston Respublikasi prezidentining 202-yil 28-yanvardagi PF – 60 son «2022−2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni.

[2] Dissertatsiya bo`yicha ilmiy tadqiqotlar sharxi www.works.doklad.ru, www.dissercat.com, www.istina.msu.ru, researchgate.net, www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

oshirish va qayta tiklashdagi muhim rolini asoslashga qaratilgan bir qator ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, yuqori ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan suvo‘tlarining istiqbolli shtammlarini ajratib olish, agrolandshaftlar va tabiiy komplekslarda mikrosuvo‘tlar, sianobakteriyalar asosida inokulyatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish, komplekslarni yaratish, yuqori biotexnologik salohiyatga ega suvo‘tlar shtammlarini yetishtirish orqali ulardan farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida foydalanishning samarali usullarini yaratish kabilardir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qurg‘oqchil hududlarda tuproq sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarining xilma-xilligi va ularning biotexnologik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma`lumotlar juda kam va tarqoq. Bu tuproq suvo‘tlari bo‘yicha ilmiy dasturlar va tadqiqot loyihalarining kamligi bilan bog‘liq. O‘z navbatida mahalliy ilmiy algologik maktablarning yo‘qligi va xorijiy yuqori malakali mutaxassislar bilan xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq, (Мельникова, 1953, 1955, 1962; Голлербах и др., 1956; Сдобникова, 1959; Обухова, 1961; Османова, 1967; Шушева, 1985; Хисориев, 1995) yoki oxirgi yillardagi kam sonli tadqiqotlar olib borilgan (Аксенова, 2010; Благадатнова 2012; Зыкова 2013; Горностаева 2015; Новичкова-Иванова 2017). Lekin, bu tadqiqotlar sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning qurg‘oqchil yashash joylarida va ayniqsa eroziyalangan tuproqlarda haqiqiy xilma-xilligini to‘liq aks ettirmaydi. Bundan tashqari, faqat morfologik identifikatsiyalash orqali tuproq sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarning zamonaviy taksonomik tarkibini baholashimkonini bermaydi.

O‘zbekistonda algologik tadqiqotlarning asosiy qismi sholi, paxta va boshqa sug‘oriladigan yerlarda suvo‘tlarni o‘rganishga bag‘ishlangan (Киселева, 1931; Мусаев 1954, 1960; Умарова, 1965; Мусаев, Тошмухаммедова, 1971). O‘z navbatida, ularning aksariyati sezilarli darajada eskirgan bo‘lib, o‘tgan asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Ular jumlasiga Qizilqum cho‘lining bo‘z-qo‘ng‘ir tuproqlari (Троицкая, 1961) va Toshkent viloyatining sug‘orilmaydigan tuproqlari qamrab olingan (Тожибоев, 1973). Faqat keyingi yillarda Farg‘ona vodiysi tuproqlarining asosiy tiplari (To‘xtaboyeva, 2019) va ularning balandlik bo‘yicha tarqalish xususiyatlari (Xusanova, 2019), hamda shahar tuproqlari (Mamasoliyev, 2019) bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari e’lon qilindi. Ammo, ilmiy adabiyotlarda suvo‘tlari shtammlari va tabiiy sianobakteriya-suvo‘t assotsatsiyalarini molekulyar-genetik aniqlash, shuningdek, ularning biotexnologik imkoniyatlarini baholash asosida qurg‘oqchil hududlar, jumladan, Farg‘ona vodiysidagi eroziyaga uchragan tuproqlarning suvo‘tlari florasi haqida ma’lumotlar keltirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya tugallangan oliy o‘quv yurti yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ilmiy-tadqiqot ishlari Namangan davlat universiteti Biologiya kafedrasi “Farg‘ona vodiysi o‘simlik va hayvonot dunyosi: tabiiy resurslar, oqilona foydalanish va elektron ma’lumotlar bazasi” rejasiga asosan algologiya laboratoriyasida olib borildi.

Tadqiqot maqsadi Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarining

sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarining taksonomik xilma-xilligini aniqlash, tahlil qilish va ayrim istiqbolli shtammlarning biotexnologik imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- eroziyaga uchragan tuproqlardan tuproq-algologik namunalar olish, aralash va algologik toza kulturalarni yetishtirish, izolyatsiyalash;
- morfologik va molekulyar genetik tahlil asosida sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlar shtammlarini aniqlash;
- Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlar algoflorasining kompleks taksonomik tahliliniamalga oshirish;
- Farg‘ona vodiysidagi eroziyaga uchragan tuproq suvo‘tlari jamoalari “yashil” qoplamining DNK metabarkoding tahlilidan foydalanish;
- sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning ayrim istiqbolli shtammlarining biotexnologik salohiyatini aniqlash;
- mikrosuvo‘tlarni inokulyatsiya texnologiyasi va tuproqni himoya qilish chora-tadbirlarining maxsus usullaridan foydalangan holda, suvo‘tlarning tuproq xususiyatlariga ta’sirinianiqlash.

Tadqiqot ob’yekti. Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarining sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlari.

Tadqiqot predmeti. Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlarning sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarining taksonomik bioxilma-xilligi va biotexnologik salohiyati.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada taksonomik, mikrobiologik, fizik-kimyoviy, bioinformatik, molekulyar-genetik va biokimyoviy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Ilk bor metagenomik, morfologik va molekulyar-genetik yondashuvlar asosida Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlarda 4 bo‘lim, 9 sinf, 20 tartib, 58 oila va 90 turkumga mansub 141 turga mansub sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning taksonomik tarkibi aniqlangan;
- DNKni metabarkodlash orqali Farg‘ona vodiysining eroziyaga uchragan tuproqlarida mikrosuvo‘tlari va sianobakteriyalarning dominantlik roli aniqlanngan va klassik usullar bilan solishtirish orqali ularning maksimal taksonomik xilma-xilligi baholangan;
- Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlarning algosenozlarini kompleks tahlil qilish asosida, fan uchun bitta yangi tur aniqlanib, to‘liq tavsifi berilgan. Algoflora uchun uchta yangi tur tavsifga tayyorlandi va metagenomik tahlil yordamida ayrimlarining biotexnologik salohiyati baholangan;
- *Bracteacoccus, Pseudomuriella, Chlorosarcinopsis, Tetradesmus* (Chlorophyta) va *Klebsormidium* (Charophyta) avlodlariga mansub shtammlar katta miqdorda to‘yinmagan yog‘ kislotalarining samarali ishlab chiqaruvchilari ekanligi aniqlangan;
- Yuqori samarali sekvens usullaridan foydalanish orqali, *Nodosilinea* sianobakteriyasining genomiga to‘liq funksional izoh berilgan;

- Farg‘ona vodiysidagi eroziyaga uchragan tuproqlarning unumdorligi yaxshilashda va tuproqni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazishda qo‘llash uchun *Klebsormidium* turkumiga mansub mikrosuvo‘tlarni inokulyatsiya texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlari algoflorasini to‘liq inventarizatsiyalash Markaziy Osiyoning qurg‘oqchil ekotizimlari tuproqlaridagi sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning xilma-xilligini o‘rganishga katta hissa qo‘shadi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar to‘plamidan ekologiya va atrof – muhitni mufozafa qilish tashkilotlari uchun turli xil milliy floristik hisobotlar va mintaqaviy kadastrlarni tuzish uchun foydalanishga tavsiya etiladi.

Sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning barcha turlarining taksonomik xilma-xilligi va geografik tarqalishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar GBIF xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritilgan (Global Bioxilma-xillik Axborot Facility, www.gbif.org). Natijada eroziyalangan tuproqlar algoflorasining biogeografik ma`lumotlaridan ochiq foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Molekulyar – genetik tahlillar asosida olingan barcha nukleotidlar ketma-ketligi GenBank, NCBI xalqaro genetik ma’lumotlar bazasiga joylashtirilgan, natijada, eroziyalangan tuproqlar algoflorasi boshqa tuproq va suv havzalari algofloralari bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Fan uchun siyanobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning yangi turlariga nomzodlarning ayrim shtammlari yuqori biotexnologik salohiyati, shuningdek, ulardan oziq-ovqat, farmasevtika sanoati va tuproqni tiklash faoliyatida samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida bayon etilgan asosiy qoidalar, xulosalar va tavsiyalar ishonchli bo‘lib, olingan natijalar tadqiqot ob’yektiga mos keladi va Farg‘ona vodiysining qurg‘oqchil mintaqalaridagi sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning taksonomik xilma-xilligini hozirgi holatini aks ettirgan.

Sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning xilma-xilligini o‘rganish uchun ishlatiladigan kulturali va metagenomik yondashuvlar algologik tadqiqotlarda ham an’anaviy, ham eng zamonaviy hisoblanadi. Bu usullarni kompleks tarzda qo‘llash orqali algofloraning zamonaviy taksonomik tarkibi shakllantirilgan.

Belgilangan vazifalar qo‘llanilgan materiallar va usullar bilan to‘liq yoritilgan va natijalar bevosita muhokama qilingan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi yetakchi ilmiy tashkilotlar – Rossiya FA Pushino Biologik tadqiqotlar ilmiy markazi, Temirzayev nomidagi O‘simliklar fiziologiyasi institutlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borilgan. Algologiya yo‘nalishida suvo‘tlarning taksonomik va biotexnologik potensiali uchun muhim natijalar kiritilgan. Olingan barcha natijalar nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilk bor kulturali va metagenomik yondashuvlarni suvo‘tlar florasida klassik usullar bilan birgalikda qo‘llagan holda, Farg‘ona vodiysining eroziyalangan tuproqlarida

sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning taksonomik xilma-xilligi o‘rganilgan. Olingan natijalar hozirgi vaqtda yuksak o‘simliklar va umurtqali hayvonlarning taksonomiyasi va biogeografiyasi bo‘yicha zamonaviy ma’lumotlar ustunlik qilayotgan Farg‘ona vodiysining mahalliy bioxilma-xilligini o‘rganishda mavjud ilmiy-amaliy bo‘shliqlarni to‘ldirishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning yangi turlari topilgan va tavsiflangan, ularning ayrimlarining biotexnologik imkoniyatlari baholangan. *Klebsormidium* turkumiga mansub mikrosuvo‘tlarni inokulatsiya usulini ishlab chiqilgan texnologiyasi tuproq unumdorligini oshirishga imkon bergan va tuproqni muhofaza qilish, hamda tuproqni tiklash tadbirlarida istiqbolli ilmiy ob’yektlar sifatida tavsiya etilgan. Farg‘ona vodiysidagi tuproq sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarning taksonomik xilma-xilligi va geografik tarqalishi bo‘yicha olingan yangi ma’lumotlar tuproqlarning ekologik holatini biomonitoring va bioindikatsiya qilish uchun asos bo‘lishi ishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlari sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarining taksonomik xilma-xilligi va biotexnologik potensialini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

Farg‘ona vodiysining eroziyalangan tuproqlarida sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning xilma-xilligi va biotexnologik salohiyati bo‘yicha (https://doi.org/10.15468/wg684r) ma’lumotlar to‘plami Global bioxilma-xillik axborot tizimiga (GBIF) joriy etilgan (25.09.2024. №015). Natijada, tuproq algoflorasini Farg‘ona vodiysi arid mintaqasida geografik tarqalish holatlarini ko‘rsatuvchi global axborot bazasidagi ma’lumotlarini muayyan darajada boyitish imkonini bergan.

Molekulyar – genetik tahlillar asosida olingan barcha nukleotidlar ketma-ketliklari PQ504911, PQ504912, PQ488471, PQ488472 (16S rRNK); OR852641-OR852650, PQ490563-PQ490566 (ITS2); OR838744 (rbcL) raqamlari ostida NCBI GenBank (https://www.ncbi.nlm.nih.gov/) da saqlangan. Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish Farg‘ona vodiysi tuproq algoflorasining taksonomiyasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni olish imkonini bergan, bu nafaqat mahalliy turlar xilma-xilligini sezilarli darajada to‘ldirdi, balki mintaqaviy (Markaziy Osiyo) miqyosda zamonaviy g‘oyalarni kengaytirdi, fan uchun noma’lum bo‘lgan yangi sianobakteriya va mikrosuvo‘tlar turlarini aniqlash imkonini bergan.

Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlarning suvo‘tlari florasining yagona ma’lumotlar bazasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 13.12.2024 y., 4/1255–2767-son ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston Respublikasida ushbu taksonomik guruhning bioxilma-xilligi bo‘yicha birinchi raqamli resurs bo‘lib, mamlakat tuproq algoflorasini to‘liq inventarizatsiya qilish, Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlari monitoringini yuritish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish nashr etilgan, shu jumladan Web of Science va Scopus bazalarida indeksiyalangan jurnallarda 2 ta maqola, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, davriy nashrlarda 2 ta maqola, 12 ta tezis, jumaldan: 5 ta xorijiy va 7 ta respublika konferensiya materiallarida chop etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkizta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti tasniflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Arid ekosistemasida eroziyalangan tuproqlar sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlarining taksonomik xilma-xilligi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘rta Osiyo tuproq algoflorasining taksonomik tarkibi haqida tahliliy ma’lumotlar berilgan. O‘zbekistonda algologik tadqiqotlar asosan sholi, paxta va boshqa sug‘oriladigan yerlar, o‘zlashtirilmagan tuproqlar, shahar tuproqlarining tur xilma-xilligini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Taksonomik xilma-xillikni o‘rganish ko‘plab nazariy va amaliy muammolarni hal qilishning kalitidir. Zamonaviy molekulyar-genetik usullardan foydalanish organizmlarni, jumladan, mikrosuvo‘tlar va sianobakteriyalarni aniqlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Fanga noma’lum bo‘lgan yangi turlar haqidagi ma’lumotlarning tez o‘sishi kuzatildi (Мальцев, 2023). Ushbu fan sohasining zamonaviy yutuqlaridan foydalanish Markaziy Osiyoda birinchi marta Farg‘ona vodiysining eroziyalangan tuproqlari sharoitida klassik floristik usullarni zamonaviy molekulyar genetik, genomik va biokimyoviy tadqiqot usullari bilan uyg‘unlashgan kompleks yondashuv asosida mikrosuvo‘tlar va sianobakteriyalarning taksonomik bioxilma-xilligini o‘rganish o‘tkazilgan. Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish Farg‘ona vodiysi tuproq algoflorasining taksonomiyasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni olish imkonini berdi, bu nafaqat mahalliy turlar xilma-xilligini sezilarli darajada to‘ldirdi, balki mintaqaviy (Markaziy Osiyo) miqyosda zamonaviy g‘oyalarni kengaytirdi. Integratsiyalashgan yondashuvning yana bir muhim natijasi fan uchun suvo‘tlar florasining yangi turlarini kashf qilish va tavsiflash bo‘lib, bu olib borilgan tadqiqotlarning muhim natijasidir.


Bobning **“Himoya mexanizmlari va biotexnologik salohiyati”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida adabiyot ma’lumotlari asosida, qurg‘oqchil ekotizimlarning sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlari yuqori harorat va qurg‘oqchilik, namlik va

ozuqa moddalarining yetishmasligidan turli xil himoya mexanizmlariga ega ekanligi va eroziyadan muhofaza choralarida sianobakteriya - mikrosuvo‘tlarga asoslangan texnologiyani qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mikrosuvo‘tlarni biotexnologik salohiyati yuqori ekanligi – Farg‘ona vodiyasi eroziyalangan tuproqlaridan birinchi marta aniqlangan *Bracteacoccus, Pseudomuriella, Chlorosarcinopsis, Tetradesmus* (Chlorophyta) va fan uchun yangi tur - Klebsormidium (Charophyta) turkumlariga mansub shtammlar katta miqdorda to‘yinmagan yog‘ kislotalarining samarali ishlab chiqaruvchilari ekanligini ko‘rsatdi va uning asosida farmasevtika, oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi sanoatlarida foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududining fizik-geografik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Farg‘ona vodiysining geografik o‘rni, relyefi, iqlimi, o‘simliklar qoplami, tuproq tiplari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Betakror geografik joylashuvi, relyefi va iqlim sharoitining xilma-xilligi Farg‘ona vodiysining turli tuproq qoplamini belgilab bergan. Bu tuproqlar yuqori antropogen ta’sir tufayli turli darajada degradatsiyaga uchragan. Tabiiy landshaftlar degradatsiyasining eng yorqin shakllaridan biri tuproq eroziyasidir. O‘zbekistonda tuproq eroziyasining turi va darajasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar X.Maxsudov (2018) ma’lumotlari asosida keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob’yekti va usullari”** deb nomlangan uchinchi bobda Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlaridan sianobakteriyalari va mikrosuvo‘tlar shtammlarini namuna olish, ajratib olish, yetishtirish va tozalash usullari, mikroskopiya va morfologik tahlillari, molekulyar genetik va biokimyoviy tahlillari, DNK-metabarkoding tahlili, to‘liq genom sekvensi, tuproqlarning fizik-kimyoviy va inokulyatsiya bo‘yicha laboratoriya tajribasi keltirilgan. Bobda, shuningdek, tadqiqot ob’ektlari va hududi haqida ma’lumot berilgan.



1-rasm. Tadqiqot hududi xaritasi

Jami 2018 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan tadqiqotlar davrida Farg‘ona vodiysining eroziyaga uchragan sakkizta hududidan hammasi bo‘lib 238 ta tuproq-algologik namunalar olingan. Andijon viloyatida Jalaquduq tumanining adirli hududlari, Namangan viloyatida Chust, Pop, Chortoq, To‘raqo‘rg‘on va

Yangiqo‘rg‘on tumanlari, Farg‘ona viloyatida Chimyon va Yaypan tumanlaridan tuproq-algologik namunalar olingan va o‘rganilgan (1-rasm).

Dissertatsiyaning **“Yashil qoplamalar DNK-metabarkodingi va kulturalar identifikatsiyasi asosida sianobakteriya va mikrosuvo‘tlarning xilma-xilligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobda Farg‘ona vodiyasi eroziyalangan tuproqlarining sianobakteriya va mikrosuvo‘tlarni aniqlash bo‘yicha to‘liq ma’lumotlar keltirilgan. Bobning birinchi bo‘limida eroziyaga uchragan tuproqlarning fizik-kimyoviy tahlillari natijalari keltirilgan bo‘lib, sakkizta o‘rganilayotgan hudud tuproqlarining fizik ko‘rsatkichlari aniqlandi: zarrachalar hajmining taqsimlanishi, pH, chirindi miqdori, harakatlanuvchi fosfor, almashinadigan kaliy va ammoniy. Eng past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan hududlar Farg‘ona viloyatidagi Chimyon, Sho‘rsuv va Pop hududlari bo‘lgan. DNK metabarkodlash natijalari Farg‘ona vodiysining eroziyaga uchragan tuproqlarida mikrosuvo‘tlari va sianobakteriyalarning dominant rolini aniqlash va klassik usullar bilan solishtirganda ularning maksimal taksonomik xilma-xilligini aniqlash imkonini bergan.

Bobning **“Sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning morfologik identifikatsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida tadqiqot hududidan aniqlangan turlarni morfologik tuzilishi, hujayra tarkibi va uchrash joylari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Tuproq namunalaridan jami 20 dan ortiq toza shtammlar ajratilgan, ulardan eng ko‘pi Namangan viloyatining eroziyalangan tuproqlaridan olingan namunalarga to‘g‘ri kelgan.

Sianobakteriyalar geterotsit bo‘lmagan filamentli taksonlar *Microcoleus, Phormidium, Nodosilinea* va *Lyngbyaga* o‘xshash turkumlar bilan ifodalangan.

Phormidium irriguum VKM Al-492 shtammi (2-rasm) ning morfologik belgilar o‘ziga xos tuzilishga ega.




2-rasm. *Phormidium irriguum* VKM Al-492 shtammining morfologiyasi. Shkala 10 mkm.

Eukariotik mikrosuvo‘tlardan *Chromochloris, Bracteacoccus, Pseudomuriella, Deuterostichococcus, Pseudostichococcus, Tetratostichococcus, Interfilum, Chlorella*, sarsinoidlardan *Chlorosarcinopsis* va *Spongiosarcinopsis,* koloniyali tuzilishli *Tetradesmus* va ipsimon *Klebsormidium* turkumlarining morfologik va molekulyar genetik tahlillari ma’lumotlari o`rganilgan.

Chromochloris zofingiensis VKM Al-437 shtammi Rezaksoy adirlaridan aniqlangan. Hujayralari bitta, yetuklari sharsimon, yosh va avtosporalari sharsimon,

tuxumsimon yoki ko‘p burchakli (3.a-rasm). Algoflora tarkibida aniqlangan barcha turlarni, shu jumladan, *Pseudomuriella schumacherensis* VKM Al-444 (3.b- rasm), *Bracteacoccus* sp. VKM Al-443 (3.c - rasm) shtammlarining to‘liq morfologik va molekulyar - genetik tavsifi o‘rganilgan.



a b c


3-rasm. *Chromochloris zofingiensis* VKM Al-437 (a) shtammining morfologiyasi, avtosporalari (a); *Pseudomuriella schumacherensis* VKM Al-444 (b); *Bracteacoccus* sp. VKM Al-443(c). shkala 10 mkm.

"Gulli dog‘lar" - qoplamalarining sianobakteriya va mikrosuvo‘tlari. Chortoq adirliklari (Chortoq tumani) yon bag‘irlarida to‘plangan tuproq-algologik namunalarda sianobakteriyalar va suvo‘tlarning 26 xil morfotiplari qayd etilgan. Birinchi ChA-1 namunasida 16 ta takson topilgan: *Leptolyngbya, Microcoleus, Nostoc, Tolypothrix, Trichocoleus va Tychonema* avlodining filamentli sianobakteriyalari; charofit suvo‘tlari *Klebsormidium* sp. va *Interfilum* sp.; *Deuterostichococcus, Diplosphaera, Elliptochloris, Leptosira, Pseudococcomyxa, Watanabea* avlodining yashil suvo‘tlari va Ulvophyceae sinfiga kiruvchi suvo‘tlari; *Hantzschia* turkuming diatom suvo‘tlari va ikkinchi ChA-2 namunalarida 15 takson: filamentli sianobakteriyalar *Microcoleus* sp. va *Trichocoleus* sp.; charofit suvo‘tlari *Klebsormidium* sp. va *Interfilum* sp.; *Bracteacoccus, Chlorella, Chlorosarcinopsis, Edaphochloris, Leptosira, Planophila, Pseudomuriella, Stichococcus, Tetracystis, Tritostichococcus* avlodlarining yashil suvo‘tlari; kichik diatomlar aniqlandi.

Rezaksoy (Chust tumani) adirlari yonbag‘irlaridan olingan namunalarda sianobakteriyalar va suvo‘tlarning kamroq turli 17 morfotiplari aniqlangan – ulardan 7 tasi birinchi RA-1 namunasida bo‘lgan: *Bracteacoccus, Chlamydomonas, Chlorosarcinopsis, Desmochloris,* kichik diatom va sianobakteriya *Trichocoleus* va ikkinchi RA-2da 14: *Microcoleus* va *Trichocoleus* avlodining filamentli sianobakteriyalari; charofit suvo‘tlari *Klebsormidium*; *Bracteacoccus, Chlorella, Chlorosarcinopsis, Edaphochloris, Graesiella*, *Pseudomuriella, Spongiochloris, Stichococcus* avlodlarining yashil suvo‘tlari; sariq-yashil suvo‘tlari *Botrydiopsis* va *Heterococcus*; shuningdek kichik diatomlar aniqlangan.

Bobning **“16S rRNK, rbcL va ITS2 spacer genlarini tahlil qilish asosida sianobakteriyalar va mikrosuvo‘t shtammlarining molekulyar-genetik identifikatsiyasi”** deb nomlangan uchinchi bo‘limida Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarida birinchi marta sianobakteriyalar va mikrosuvo‘tlarning kulturalari

genetik xilma-xilligi o‘rganilgan va yangi nomzod taksonlar taklif qilingan. O‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, *Phormidium irriguum* VKM Al-492 shtammi *Oscillatoria, Lyngbya* va *Phormidium* avlodlari vakillari sifatida belgilangan shtammlarni, jumladan *P.irriguum*ni birlashtiruvchi shtammiga kiritilgan. Guruh uchun statistik yaqinlik 83% ni tashkil qiladi.



4-rasm. ITS2 (375 n) ichki transkripsiyalangan spacer ketma-ketligi asosida Bayes usulida qurilgan *Stichococcus*-clad yashil mikrosuvo‘tlarining filogenetik daraxti

ITS2 tahlili. Molekulyar genetik tahlilga ko‘ra VKM Al-446 shtammi *Tetratostichococcus jenerensis* shtammlari bilan guruhlangan. ITS2 va haqiqiy SAG 2138 shtammi o‘rtasidagi genetik farqlar darajasi 3,5%, KS126SM6L shtammi bilan esa 2,1% ni tashkil etdi. Bunday holda, KS126SM6L shtammini klasterning boshqa vakillaridan ajratib turadigan I (10 bp) bo‘limining o‘zgaruvchan hududida 1 ta CBC topildi. *Tetratostichococcus* turi monotipik bo‘lganligi va faqat uchta aniqlangan ITS2 ketma-ketligini o‘z ichiga olganligi sababli, bu guruh qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi, shuning uchun VKM Al-446 shtammi *Tetratostichococcus* sp. holida qabul qilindi (4-rasm).

Dissertatsiyaning **“Eroziyalangan tuproqlar “*gulli*” dog‘larining sianobakteriya va mikrosuvo‘tlarining ITS2 va 16S rRNK V3-V4 mintaqasi DNK-metbarkodingi”** deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida 16S rRNK geni va ITS2 spacerning V3-V4 mintaqasini yuqori o‘tkazuvchanlik sekvensiyasi asosida Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlarda sianobakteriyalar va suvo‘tlarining xilma-xilligi birinchi marta taqdim etilgan. DNK-metbarkodingi tahlilida 16S rRNK xloroplast genining V3-V4 mintaqasidan foydalanish suvo‘tlar florasida yashil suvo‘tlarining *Edaphochlorella, Pseudomuriella, Watanabea* kabi avlodlarini, shuningdek, diatomlardan *Bacillaria, Fistulifera, Entomoneis* va *Charophyta* bo‘limidan *Klebsormidium* turkumlarini qo‘shimcha ravishda aniqlash imkonini bergan. Sianobakteriya va mikrosuvo‘tlar bilan birgalikda tuproq bakteriyasi jamoalari bo‘limlari aniqlanilib, ular tadqiqot hududi Chortoq va Rezaksoy adirliklarining “gulli” dog‘lar qoplamalaridan olingan. ChA-1 namunasida bakteriyalar 7; ChA-2 namunasida 5; RA-1, 2 namunalarida esa 5 bo‘limdan iborat bo‘ldi. Aniqlangan bakteriya bo‘limlari orasida Pseudomonadota bo‘limi barcha hududlarda tarqalish bo‘yicha dominantlik qilgan.

ITS2 profil ma’lumotlariga ko‘ra, ChA-1dan tashqari barcha namunalarda Viridiplantae olami vakillari ustunlik qilgan, ularning aksariyati Chlorophyta bo‘limining yashil suvo‘tlari edi. Bunday holda, RA-1 namunasida moxlar (Bryophyta) yo‘q edi, RA-2 namunasida ular 7,9%, ChA -1da - 0,9% va ChA -2da - 15,8% ni tashkil etdi. ChA-1 namunasi (87,5%) bundan mustasno, zamburug‘larning nisbati 28,9 dan 32,5% gacha o‘zgargan. Protozoa mikroblar jamoasining kichik komponenti (0,3%) sifatida faqat ChA - 2 namunasida aniqlangan.

ITS2 shtrix-kodi yordamida faqat yashil suvo‘tlar (Chlorophyta) aniqlandi. Xloroplast 16S rRNK genidan foydalanish Viridiplantae olamini va SAR superguruhidan taksonlarni qo‘shimcha aniqlash imkonini berdi.


Dissertatsiyaning **“Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarining fan uchun yangi bo‘lgan mikrosuvo‘tlari va sianobakteriyalarining morfologik, molekular-genetik tahlili”** deb nomlangan beshinchi bobida Farg‘ona vodiysi eroziyaga uchragan tuproqlarning mikrosuvo‘tlari va sianobakteriyalarining taksonomik tarkibini inventarizatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida molekulyar-genetik tahlil ma’lumotlariga ko‘ra tuproq algoflorasining hozirda ma’lum bo‘lgan turlariga mos kelmaydi. Keyingi integral yondashuvdan foydalanish natijalari shuni ko‘rsatdiki, shtammlar fan uchun yangi bo‘lgan taksonlarga tegishli bo‘lgan. E’tiborlisi, O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyoda zamonaviy algologiya fani tarixida birinchi marta siyanobakteriyalar va suvo‘tlarning yangi turlari kashf etilgan.

Ushbu bobning birinchi bo‘limida Charophyta bo‘limiga kiruvchi dengiz, chuchuk suv, tuproq va havoning keng doiralarida yashaydigan Klebsormidium turkumining kosmopolit filamentli suvo‘tlariga mansub shtammining morfologik va molekulyar genetik tahlili ma’lumotlari keltirilgan (E.Samolov, va boshq., 2019).

Namunalardan ajratilgan *Klebsormidium* VKM Al-436 shtammi 11-50 hujayragacha bo‘lgan o‘rta uzunlikdagi filamentli suvo‘tlar bo‘lgan. Ma’lumki, *Klebsormidium* turkumi uchun 18S rRNK geni, shuningdek, ichki transkripsiyalangan ajratgichlar (ITS1 va ITS2) konservativ molekulyar belgilar bo‘lib, Mikhailyuk (2015) va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, ba’zi sinflar (ayniqsa, B va C) va turlar (ayniqsa, E sinfida) o‘rtasida aniq ajratishga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ushbu guruh vakillarining turlarini aniqlash uchun ko‘proq o‘zgaruvchan plastid gen rbcL ishlatilgan.

Hozirgi vaqtda turlarning xilma-xilligi eng to‘liq tavsiflangan F va G sinflari vakillari misolidan foydalanib (Mikhailyuk va boshq., 2015; Samolov va boshqalar, 2018) shuni aytish mumkinki, turkum ichidagi turlararo farqlar darajasi rbcL uchun 2 dan 16,6% gacha. Olti xil usul (ASAP, LocMin, KoT, GMYC, mlPTP va bPTP) yordamida amalga oshirilgan turlarni chegaralash yangi turning mustaqilligini tasdiqladi.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan VKM Al-436 shtammining mustaqil filogenetik pozitsiyasi va unga mos keluvchi haqiqiy shtamm *K. subtile* SAG 384-1 bilan genetik tafovutlar darajasini hisobga olgan holda, bu shtamm ilm-fan uchun *Klebsormidium* turkumining yangi turi bo‘lib, uni *Klebsormidium mirabile* deb nomlashni taklif qilingan (5-rasm)



5-rasm. Klebsormidium sp. shtammining morfologiyasi. VKM Al-436: a, b - iplar va bitta hujayralarning umumiy ko‘rinishi; c - hujayra devorining H shaklidagi bo‘laklari; d - yadrosi va yadrosi aniq ko‘rinadigan hujayralar; e - ikki qatorli iplarni shakllantirish; f - suyuq kulturadagi flokulyant koloniyalar; g - agar plastinkasida kigizga o‘xshash koloniyalar; h - agar plastinkasida havo filamentlarining to‘plamlari, i - shilimshiqni aniqlash uchun siyoh bilan bo‘yalgan filamentlar. Masshtab chiziqlari: (a-e) 10 mkm, (h-i) 50 mkm.

***Golotip**: Klebsormidium mirabile* Yu.Tukhtaboeva, E.Krivina, V.Redkina, A.Temraleeva sp. now.

Haqiqiy shtamm: VKM Al-436 haqiqiy shtammi Rossiya Fanlar akademiyasining G.I.Skryabin nomidagi Mikroorganizmlar biokimyosi va fiziologiyasi institutining Butunrossiya mikroorganizmlar kolleksiyasida (VKM) va Pushchino biologik tadqiqot markazida saqlangan.

Tipik rasm: 5-rasm.

Tarqalish joyi: tuproq.


Tipik joylashuvi: O‘zbekiston, Farg‘ona vodiysi, Namangan viloyati, Pop tumani, Pop adirlari o‘rtacha eroziyalangan tuprog‘i, 40°52'37,14" N,70°59'44,76" E.

Beshinchi bobning ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi bo‘limlarida **“Yangi turga nomzod Spongiocarsinopsis, Nodosilinea, shuningdek Leptolyngbyaga o‘xshash turkum”** larning morfologik, molekulyar-genetik tavsifi keltirilgan.

ined. *Spongiosarcinopsis* sp. (6-rasm).

Shtamm Spongiosarcinopsis sp. VKM Al-495 yosh hujayralar sharsimon, diametri 7-10 mkm, yupqa silliq membrana bilan qoplangan.

Molekulyar va morfologik natijalar taxlili asosida Spongiosarcinopsis turkumining filogenetik dendrogrammasi tuzildi. Bunga ko‘ra, ITS2 daraxtida VKM Al-495 shtammi *Spongiosarcinopsis terrestris* ACSSI 23 turining haqiqiy shtammlaridan mustaqil pozitsiyani egallagan (Temraleeva va boshq., 2018; c.242) va yaqinda tasvirlangan *S.limneus* turlari (Lortou va boshq., 2022) va S.*qinghaiensis* (Yan va boshq., 2022), FACHB-3538, FACHB-3500, FACHB-3499 va KAERI-NJ23 shtammlari bilan yuqori statistik yordamga ega (97%) guruhni tashkil qiladi. Ushbu guruhdagi genetik farqlar 0 dan 2,4% gacha.



6-rasm. *Spongiosarcinopsis* sp. morfologik tuzilishi

Spongiosarcinopsis turkumi turlarining ITS2 ketma-ketligida ikkilamchi strukturasi bo‘yicha ham tahlili amalga oshirilgan. VKM Al-495 ITS2 ikkinchi novdasidagi qo‘shimchalar tufayli eng uzunidir. VKM Al-495 shtammining ikkilamchi struktura tahlili barcha uchta yuqorida keltirilgan haqiqiy shtamm bilan solishtirganda ITS2 ning saqlanib qolgan hududlarida CBC yo‘qligini ko‘rsatdi. Olingan morfologik, molekulyar-genetik tahlil natijalariga ko‘ra, aniqlangan takson *Spongiosarcinopsis* turkumining yangi tavsifi to‘liq yakunlanmagan turidir.

VKM Al-494 shtammining **“Yangi turga nomzod Leptolyngbya turkumi”** morfologiyasi odatda *Leptolyngbya* turkumiga mos kelgan (Komárek, Anagnostidis, 2005; c. 174). Biroq, *Leptolyngbya* turkumi polifiletik ekanligi aniqlangan (Komárek va boshq., 2014) va uning tarkibidan ko‘plab yangi avlodlar ajratilgan, masalan, *Haloleptolyngbya, Myxacorys, Nodosilinea, Oculatella, Phormidesmis, Plectolingbya, Stenomitos* va boshqalar.

16S rRNK tahliliga ko‘ra, VKM Al-494 shtammi Nodosilineaceae oilasiga tegishli bo‘lgan. Guruh uchun yuqori statistik yordamga ega bo‘lgan eng yaqin guruhlar kulturasiz (FJ516017) va tasniflanmagan (MH666135) sianobakteriyalarga tegishli 2 ta ketma-ketlik bo‘lgan. Guruh ichidagi genetik masofalar 4,1 dan 5,3% gacha bo‘lgan. Aniqlangan taksonlardan eng yaqinlari Haloleptolyngbya, Nodosilinea va Marileptolyngbya avlodlari bo‘lgan. VKM Al-494 shtammi va ularning turdagi turlarining haqiqiy shtammlari orasidagi genetik masofalar mos ravishda 5.9, 5.4 va 5.5% ni tashkil etgan. Bu genetik tafovutlarning avlodlararo darajasiga mos keladi. Shunday qilib, ajratilgan shtamm Nodosilineales tartibidagi Nodosilineaceae oilasining yangi turkumiga nomzod bo‘lgan.

“Nodosilinea turkumining yangi turiga nomzod”. Morfologik va molekulyar - genetik tahlilga asoslanib, VKM Al-498 shtammi *Nodosilinea* turkumiga tegishli bo‘lgan. Turkum ichidagi genetik masofalar 0 dan 4,43% gacha bo‘lgan.

Shu bilan birga, 16S rRNK gen ketma-ketligidagi farqlar *N.chupicuarensis*ning yangi turlarini tavsiflashda Nodosilinea turkumining sianobakteriyalari turlarini farqlash uchun yetarli emas deb hisoblanadi (Vázquez-Martínez va boshq., 2020), *N. coculeatus* va *N. terrestrialis* (Nuryadi va boshq., 2024). O‘zgaruvchan ichki transkripsiyalangan spacer 16S-23S ITS tahlili, shu jumladan saqlanib qolgan D1-D1' va boxB domenlarining ikkilamchi tuzilishi va uzunligi, turkumning turlarini ajratish uchun yaxshi vosita bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlarda muvaffaqiyatli

qo‘llanilgan. O‘rganilayotgan VKM Al-498 shtammi va *Nodosilinea* turkumining barcha tavsiflangan turlari o‘rtasidagi ajratgichning ikkilamchi tuzilishidagi farqlar uning mustaqil tur maqomini tahmin qilishni tasdiqlagan.

Dissertatsiyaning oltinchi bobi **“Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlari algoflorasi taksonomik tahlili va uning qiyosiy tavsifi”** deb nomlangan. Unda eroziyalangan tuproqlardan aniqlangan mikrosuvo‘tlar va sianobakteriyalarning taksonomik tadqiqotlari natijalari, ularning tadqiqot hududining boshqa hududlari bilan qiyosiy floristik tahlili keltirilgan. Bobning **“Suvo‘tlar taksonlari spektrlarining tahlili”** deb nomlangan birinchi bo‘limida bo‘limlar, sinflar, tartiblar, oilalar va turkumlarning spektr tahlili keltirilgan.

Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarning algoflorasi 4 bo‘lim, 9 sinf, 20 tartib, 58 oila va 90 turkumga mansub 141 turni o‘z ichiga oldi (2-jadval). Tadqiqot hududidan aniqlangan taksonlarining asosiy qismi (72 takson, 51,1%) Chlorophyta bo‘limiga mansub. Bu bo‘linma vakillarining o‘rganilayotgan hududda keng tarqalishi bo‘linma tarkibiga kiradigan sinf, tartib va oila vakillarining soni bilan belgilanadi va ular eroziyaga uchragan tuproqlarda ma’lum qonuniyat bo‘yicha taqsimlanadi.

2-jadval

Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlarning algoflorasi taksonomik tarkibi

Bo‘lim	Sinf	Tartib	Oila	Turkum	Tur
Cyanobacteria	1	12	20	30	53
Chlorophyta	3	3	26	46	72
Heterokontophyta	3	3	10	11	12
Charophyta	2	2	2	3	4
Jami:	**9**	**20**	**58**	**90**	**141**

Taksonomik holat bo‘yicha ikkinchi o‘rinda (53 takson, 37,6%) Cyanobacteria bo‘limi bo‘ldi. Yetakchi bo‘limlar spektrida keyingi o‘rinni diatomlar, eustigmatofitlar va sariq-yashil suvo‘tlarini o‘z ichiga olgan Heterokontophyta (12 takson, 8,5%) va Charophyta (4 takson, 2,8%) egalladi. Biroq, turli geografik joylarda, Chlorophyta bo‘limi har doim ham dominantlik qilmadi, (asosan Chortoq adirliklarida 46 tur) tadqiqot hududining Farg‘ona viloyati Sho‘rsuv va Namangan viloyati Chortoq hududlarida sianobakteriya bo‘limi yetakchi bo‘ldi (3-jadval).

Bu ikki hududning geografik jihatdan uzoq bo‘lishiga qaramay, sianobakteriyalar bo‘limi vakillari bu yerda deyarli bir xil nisbatda tarqalgan – mos ravishda 29 va 26 ta, asosan Chortoq adirining shimoliy yon bag‘irlarida, A va B gorizontlarida *Tolypothrix tenuis, Oscillatoria anguina, Nodosilinea* sp.) ko‘p miqdorda uchrashi aniqlangan. Bundan tashqari o‘rganilayotgan hududda filamentsimon vakillari (*Cylindrospermum licheniforme, Cylindrospermum muscicola, Leptolyngbya angustissima*) bilan bir qatorda sharsimon kokkoidlar (*Microcoleus vaginatus, Synechococcus elongatus*) ham keng tarqalgan.

3-jadval

Tadqiqot hududlardagi turlarning taksonomik tarkibi

Bo‘limlar	AA	ChA	NA	PA	RA	TA	Chim.A	ShA
Cyanobacteria	18	29	15	20	15	11	20	26
Chlorophyta	20	46	16	17	31	11	15	11
Charophyta	2	3	2	2	3	0	0	0
Heterokontophyta	2	6	2	2	4	1	3	4
Jami:	**42**	**84**	**35**	**41**	**53**	**23**	**38**	**41**

Eng kichik ko‘rsatkich Charophyta va Heterokontophyta bo‘linmalari vakillariga to‘g‘ri keldi. To‘raqo‘rg‘on, Chimyon va Sho‘rsuv adirlarida hatto Charophyta bo‘limi vakillari umuman qayd etilmagan. Bu holat ikkala tur vakillarining o‘sishi uchun yetarli sharoitlar ta’minlanmagan muhit deb hisoblanadi.

Sinflar spektri bo‘yicha yetakchi sinf Cyanophyceae (53 takson), undan keyin Chlorophyceae (39) va Trebouxiophyceae (31) sinfining yashil suvo‘tlari, shuningdek, Bacillariophyceae sinfining diatomlari (9) bo‘lgan.

Tartiblar spektri bo‘yicha algofloraning 20 ta tartibidan 6 tasi dominant tartib bo‘lib, 92 turni (65,2%) o‘z ichiga oladi.

Farg‘ona vodiysining eroziyalangan tuproqlarining sianobakteriyalari orasida Nostocales (19 tur), Oscillatoriales (12) va Leptolyngbyales (9) turkumlari, qolganlari esa Chroococcales (2), Chroococcidiopsidales (1), Desertifilales (1), Geitlerinematales (1), Gomontiellales (1), Nodosilineales (2), Oculatellales (1), Pseudanabaenales (1) va Synechococcales (3), kam ifodalangan. Chlorophyta bo‘linmasi ichida yetakchi tartiblar Sphaeropleales (21), Chlamydomonadales (18) va Prasiolales (13) bo‘ldi. Diatomlar orasida Naviculales (5) tartibi ustunlik qilgan. Sariq-yashil va eustigmatofit suvo‘tlari mos ravishda Tribonematales (2) va Eustigmatales (1), charofit suvo‘tlar Klebsormidiales (3) va Desmidiales (1) turkumlariga tegishli. Tartib darajasidagi suvo‘tlar taksonlarining spektrlari ham Namangan viloyatining eroziyaga uchragan tuproqlarida eng ko‘p va xilma-xil bo‘lgan, ayniqsa, Chortoq va Rezaksoy adirliklari tuproqlarida aniqlangan bo‘lib, ularning algoflorasi nafaqat yorug‘lik mikroskopiyasi va kulturalarini yetishtirish, balki DNK metabarkoding tahlili yordamida ham o‘rganilgan.

Ushbu bobning **“O‘zbekiston Respublikasi tuproqlari va o‘xshash yashash joylari algoflorasi bilan qiyosiy tahlillari”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida Farg‘ona vodiysi eroziyalangan tuproqlari algoflorasini turli yashash muhiti xususiyatlari bir xil bo‘lgan hududlar bilan qiyosiy tahlili keltirilgan.

Dastlab o‘rganilgan sakkizta tadqiqot hududi tuproqlari algoflorasining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan. Eng yuqori o‘xshashlik Jakkar koeffitsienti bo‘yicha (0,53) Alamushuk va Pop adirlarining algofloralari juftligida, eng pasti (0,12) To‘raqo‘rg‘on va Shorsuv adirliklarida aniqlangan. Past o‘xshashlik koeffitsientlari, ehtimol, tuproqning geterogenlik va mikromozaik sharoitlar, shuning uchun mikroorganizmlarning taksonomik tarkibi kabi xususiyatlari bilan bog‘liq. Barcha 8 ta joyda topilgan yagona tur sianobakteriya *Limnoraphis cryptovaginata* bo‘lgan.

Turlar soni bo‘yicha Chortoq adirlari (84 tur) yetakchi bo‘lgan (3-jadval). Ikkinchi yetakchi o‘rinni 53 tur bilan Rezaksoy egallaydi. Keyingi o‘rinlarda bitta

